

**Daminova Mavluda Shomurod qizi.**

*SamDU sport faoliyati va san'at fakulteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktab o'quvchilari o'rtasida qo'l to'pi sport turini ommalashtirish va jismoniy jihatdan chiniqtirish maqsadida musobaqalar tashkil etish, o'tkazish, musobaqalarni olib borish qonun-qoidalari bilan tanishтирish masalasi ilgari surilgan.*

**Kalitso'zlar:** *Musobaqa, nizom, talabnama davrali, aralash, setka, kubok, asosiy, yordamchi.*

### **KIRISH**

Yurtimizda oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyati cheklanganlar jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yartish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarda munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalgalashirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Turizim va sport vazirligi tizimidagi o'quvchilar o'rtasida "Bolalar va sport" musobaqasini o'tkazish orqali iqtidorli sportchilarni aniqlash va yoshlar terma jamoasiga zahira yaratilmoqda. Umumta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida esa "Umumta'lim maktab sporti" festivali, "Jismoniy tayyorgarligini top" kabi musobaqalar tashkil etilib, bolalarda jismoniy tarbiya va sportga mehr va qiziqishni ortirshiga harakat qilinmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Musobaqalar muvaffaqiyatli o'tishi uchun quyidagi pedagogik talablarga javob berish kerak:

- o'quv, mashq-to'garak jarayonining yakuni bo'lishi;
- musobaqa oldidan ishtirokchilarga, ya'ni o'quvchilarga yetkazilgan dastur reja asosida bo'lishi;
- musobaqalarda sport turlari bo'yicha qonun-qoidalarga rioya etilishi; Musobaqa o'tkazishda musobaqa dasturi qatnashuvchilarning yoshi, jinsi va sport tayyorgarligini hisobga olgan holda tuzilishi kerak bo'ladi. Musobaqa rejasi oldindan tuzilib jamoalarga yetkazilishi kerak, chunki har bir jamoa oldindan musobaqaga tayyorgarlik ko'rishi lozim. Musobaqalar o'quvmashg'ulot jarayonining davomi hisoblanadi. Ular sportchi bilan murabbiyning sermashaqqat ishiga yakun yasaydi.

Msobaqalar qatnashchilarning va umuman jamoaning jismoniy, texnik- taktik va axloqiy, irodaviy tayyorgarlik darajasini aniqlaydi. Musobaqalar qat'iyatlilikni, g'alabaga erishish yo'lidagi iroda kuchini tarbiyalaydi. Musobaqalar ko'p sonli tomoshabinlarni jalg etishi bilan sport o'yinini targ'ib qilish va ommalashtirishda qudratli vosita bo'lib xizmat qiladi. Oldinga qo'yilgan vazifalarga qarab musobaqalarni

asosiy va yordamchi musobaqalarga bo'lish mumkin. Musobaqalarning asosiy turi kalendor musobaqalar bo'lib, ular sport tadbirlarining yagona kalendor rejasida nazarda tutiladi va tasdiqlangan nizomga muvofiq ravishda o'tkaziladi

Quyidagi turlar asosiy musobaqalarga kiradi:

1. Birinchilik yoki championat;
2. Kubok musobaqalari;
3. Saralash musobaqalari;

Musobaqalarning yordamchilari esa quydagilardir:

1. Nazorat uchrashuvlar ;
2. O'rtoqlik uchrashuvlari;
3. Namunali uchrashuvlar;
4. Qisqartirilgan musobaqalar;

Musobaqa 2 tizimda: davrali (aylanma) va mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketadigan (olimpiski) tizimlarda o'tkaziladi.

Musobaqaning davrali tizimda har bir jamoa agar musobaqa bir marta o'tkazilsa bir-biri bilan 1 marta, ikki davrali o'tkazilsa 2 marta uchrashishadi. Davrali tizimda musobaqa ishtirokchilarining barcha o'rnlari to'plangan ballar soniga qarab aniqlanadi. O'tkazilgan barcha o'yinlar natijasida eng ko'p ball olgan jamoa g'olib hisoblanadi. Davrali tizim bo'yicha o'yin tartibida qur'a natijasiga ko'ra musobaqada qatnashuvchi jamoalarning tartib raqamlari aniqlanadi. Raqamlar asosida o'yinlar jadvali tuziladi. Davrali sistema bo'yicha o'tkaziladigan o'yinlar jadvalini ikki usul bilan tuzish mumkin.

Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar umumiy soniga yaqin bo'lgan toq son olinadiva unga muvofiq ravishda vertikal chiziqlar o'tkaziladi. Vertikal chiziqlar ostidan va ustidan pastdan boshlab chapdan o'nga qaratib jamoalar raqami ketma-ket tartibda yoziladi

Jamoalarning umumiy soniga eng yaqin bo'lgan toq songacha orada bir chiziq qoldirib yozib chiqiladi. Bu raqamlar grafik tarzda yozish uchun reja hisoblanadi. Bu usulda jamoalarning har bir turda navbat bilan maydon almashishiga qat'iy rioya qilinadi.

Ikkinci usulda esa maydon almashishi hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Davrali tizim bo'yicha bir davrali musobaqalar o'tkazishda kerak bo'lgan vaqtни aniqlash uchun o'yinlarning umumiy sonini bilish kerak. Bu quyidagi formula bo'yich aniqlanadi

$$I = (J/J-1) : 2$$

I-o'yinlar, J- musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soni  $J-16$   $I=(16/16-1): 2 = 120$

O'yindan chiqib ketish bilan o'ynaladigan musobaqa tizimi o'yinlar qisqa muddatda o'tkazilishi kerak bo'lganda va musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni ko'p bo'lganda qo'llanadi. Mag'lubiyatga uchragan jamoa musobaqadan chiqib ketadi. Bu tizim bo'yicha o'tkaziladigan o'yinlar tartibini aniqlashda, avvalo musobaqada

qatnashuvchi jamoalar soniga mos setka tuzish zarur. Shundan keyin qura tashlanadi. Grafik jamoalar soniga qarab tuziladi. Agar jamoalar soni 2 sonining

**9 -5**

darajasiga teng bo'lsa  $22 = 4 \cdot 23 = 8$  va hakazo hamma jamoalar o'yinni birinchi davradan boshlaydi . O'yinni birinchi turdan boshlaydigan jamoalar sonini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalilanadi.

**J1=(J0-22):2**

Bunda J1 - musobaqada birinchi turdan boshlab qatnashadigan jamoalar soni. 2n - musobaqada qatnashadigan jamoalarning umumiyl soniga eng yaqin bo'lgan eng kichik son. n- musobaqada qatnashuvchilar soniga qarab tanlanadigan daraja ( n=2 ,3,4,5)

**1595**

O'tkaziladigan barcha musobaqlarda nizom bo'lishi lozim. Nizom musobaqa o'tkazilayotgan biror tashkilot tomonidan tasdiqlanadi. Nizom oldindan tasdiqlanishi va tarqatilishi lozim. Nizomda quyidagilar aks etadi.

1. Musobaqa maqsadi va vazifasi;
2. Musobaqani kim o'tkazishi;
3. Musobaqani o'tkazish muddati va shartlari;
4. Musobaqada qo'yiladigan jamoalar va talabnomadagi qatnashchilar soni;
5. Musobaqa o'tkaziladigan o'zin sistemasi;
6. Musobaqada jamoalar egallagan o'rnnini aniqlash;
7. Musobaqaning alohida shartlari;
8. Qatnashchilar talabnomasini rasmiylashtirish , formasi, o'inchilarning talabnomasi berishi va qayta talabnomasi berish;
9. Musobaqani olib boruvchi hakamlar;
- 10.Qatnashuvchilar ogohlantirish bilan bog'liq qarorlar; ll.O'inchilar nizomni buzganligi uchun jamoaning javobgarligi;
- 12.Musobaqa joyiga qo'yiladigan talablar;
- 13.G'oliblarni mukofotlash;
- 14.Musobaqani ochilishi va yopilishi;

**XULOSA**

Xulosa qilganda har qanday musobaqa o'quvchilarni har taraflama o'sishi uchun turtki bo'ladi. Ularni harakatga undaydi. O'quvchilar o'rtasidao'zaro do'stlik tuyg'usini shakllantiradi. U orqali sport turini kelajagini yaratadigan iqtidorlarni kashf etiladi.

**REFERENCES:**

1. T.S.Usmonxojayev va boshqalar "500 harakatli o'zinlar"
2. B.Nigmatov, K.Rahimqulov "Sport o'zinlari va uni o'qitish metodikasi" 1596